

**CHIGITLI PAXTANING IFLOSLIGINI ANIQLASH VA UNING TOLANING
SIFATIGA TA'SIRINI O'RGANISH**

Raxnamoxon Nazirova Muxtorovna

Farg'ona politexnika instituti T.f.f.d (PhD) dotsent.

Nodiraxon Tirkasheva

M 20-21 guruh talabasi

Chigitli paxtaning iflosligi deganda, unga qo'shilgan har xil mineral va organik jismlar tushuniladi va uning miqdori boshlang'ich og'irligiga nisbatan % hisobida aniqlanadi. Mineral iflosliklarga tuproq, toshchalar, qum va chang kiradi.

Organik iflosliklarga: barg bo'lakchalari, g'o'za guli, chanoqlari, poyasi, shoxlari va sanoatda ahamiyatga ega bo'lmagan tolalar kiradi. Paxtaning ifloslanganligi 2L-12M asboblarda aniqlanadi.

Namuna tanlash:

Paxta partiyasidan namunalar tanlash O'zRST 643 ga muvofiq bajariladi.

2L-12M va LKM qurilmalarida ifloslikni aniqlash uchun namunalar tanlash.

Sinov uchun namunalar bankaga solingan yoki stolga yoyib qo'yilgan (o'rtacha kunlik) namunadan tanlab olinadi. Olingan namunalar stol ustiga yoyib teng to'rt bo'lakka bo'linadi, ajratilgan bo'laklarning ikkitasi tashlab yuboriladi qolgan ikkitasi qo'shiladi. Shu tartibli ajratish orqali uchta 300 g lik sinash uchun namuna tayyorlanib, bulardan ikkitasi analiz uchun olinsa, uchinchi ehtiyot uchun olinadi.

Qo'lda ifloslikni aniqlash uchun namunalar tanlash.

Chigitli paxta tarkibidagi iflos aralashmalarni qo'lda aniqlash uchun namuna tanlash ham qurilmalar uchun namuna tanlash singari bajariladi. Qo'lda aniqlash uchun ikkita 100 g lik sinash uchun namuna olinadi.

O'lchashni bajarish:

Chigitli paxta tarkibidagi iflos aralashmalarni 2L-12M va LKM asboblarda o'lchashni bajarish.

Asboblarda paxtaning iflosligini aniqlash uchun quyidagi formuladan foydalaniladi:

$$Z = \frac{m_2 \cdot 100}{m_n}$$

Bunda:

m_2 – ajratilgan yirik va mayda xas cho'plar massasi, g;

m_n – o'rtacha namunaning tozalanmasdan oldingi massasi, g;

Qo'lda va mashinada terilgan paxtaning ifloslik meyor, %;

Agarda o'rtacha ifloslik darajasi ko'rsatkichlari orasidagi farq 10% gacha bo'lgan paxta 0,6% dan ortiq bo'lmasa paxtaning haqiqiy iflosligini topish uchun

shu ko'rsatilgan chegaradan yuqori bo'lsa, extiyoj uchun mo'ljallangan 3 kichik namunani ham tekshirib, uchala ko'rsatkichning o'rtacha qiymati aniqlanadi.

Ishning borishi:

Chigitli paxtaning iflosligini aniqlash uchun 100 g li namunasini qo'lda yoki 300 g og'irlikdagi namunasini 2L-12M yoki LKM markali pribor yordamida ajratish kerak. Chigitli paxtaning o'rtacha namunasi 3 ta 300 grammlik kichik namuna olib, ulardan 2 tasi analiz uchun olinsa, uchinchi ehtiyot uchun olinadi. 2L-12M pribor bilan ishlaganda har ikkala kichik namuna paxtadan yirik aralashmalarni qo'l bilan ajratib olinadi. 2L-12M mashinasining ishlash tartibi. Olingan namuna qurilmaning bunkeriga solinadi. Belgilangan vaqt o'tgach qopqoq 7 ni ochib tozalangan chigitli paxta yashiklarga o'tkaziladi. So'ngra iflosliklari yig'iladigan idishni chiqarib olib pribor devorlariga yopishgan changlar ortib olinadi. Yig'ilgan hamma iflosliklar bir kelib hammasi tarozi 0,01 g aniqlikkacha tortiladi.

Paxtaning iflosligi uning sifatini belgilaydigan ko'rsatkichlardan biri hisoblanadi. Paxtadagi iflos aralashmalar miqdorining uning absolyut toza vazniga bo'lgan foiz hisobidagi nisbati paxtaning iflosligi deb yuritiladi. Paxta tarkibidagi iflosliklar ikki xil bo'lladi anorganik va organik. Anorganik aralashmalarga tuproq, qum, chang, toshchalar, metal qirindilari va boshqalar kiradi. Organik aralashmalarga esa barg bo'lakchalari, gulyonbargi, gul, ko'sak, poya, chirigan bo'lakchalar kiradi. Chigitli paxta tarkibida xom va maydalangan chigitlar (o'lik) uchraydi, bular ham paxta iflosligini orttiradi.

Chigitli paxta tarkibidagi iflos aralashmalarni ikki xil usulda qo'lda va LKM, 2L-12M qurilmalarida aniqlanadi. 2L-12M qurilma bilan ishlaganda har ikkala kichik namuna paxtadan yirik qo'shilmalarni (g'o'za puchogi, shoxlari, chirigan va kurigan paxta pallalari) qo'l bilan ajratib qo'yiladi. Namuna qurilmaning bunkeriga solinadi, qurilma yurgiziladi va taxminan yarim minutdan keyin paxta qurilma ichiga tushiriladi.

I va II sanoat navi chigitli paxta namunasi 3 minut qolgan sanoat navi paxtalari uchun 5 minut ushlanadi. Belgilangan vaqt o'tgach qopqoqni ochib, tozalangan chigitli paxta idishga o'tkaziladi. So'ngra iflosliklar yig'iladigan idishni chiqarib olib qurilma devorlariga yopishgan changlar artib olinadi. Yig'ilgan hamma qo'shilmalarni bir qilib, hammasi tarozida 0,01 g aniqlik bilan tortiladi. LKM markali qurilma bilan ishlaganda 300 g li kichik namuna olib, qurilmaning bunkeriga joylanadi, "yurgizish" tugmasi bosiladi. Chigitli paxta seksiyada 120 sekund tozalanadi va bu vaqtda "1-seksiya" lampasi yonib turadi. 120 sekund vaqt o'tgach maxsus elektromagnit ishlab "1-seksiya" lampasi o'chib "2-seksiya" lampasi yonadi va qopqoq avtomatik ravishda ochilib, chigitli paxta ikkinchi seksiyaga o'tadi, bunda yana 45 sekund tozalanadi. Shu vaqt o'tgach "sikl tamom" degan signal lampasi yonib ("2-seksiya" lampasi uchadi), chigitli paxta 15 sekund ichida yashikga o'tadi va "sikl tamom" lampasi o'chib, qurilma avtomatik

ravishda to'xtab qoladi. Qurilma to'xtagandan keyin hamma kamera devorlaridagi changlarni artib, idishlar olinadi. Umumiy iflos aralashmalarning vazni aniqlanadi.

Chigitli paxta tarkibidagi iflos aralashmalarni qo'lda aniqlashni bajarish. Bu usulda chigitli paxta tarkibidagi iflos aralashmalar va o'lik paxtalar aniqlanadi. Tayyorlangan namunadan qo'lda yirik aralashmalar (gul, ko'sakchalar, poya va barglar), pinset yordamida mayda aralashmalar ajratiladi. Yirik va mayda aralashmalar to'planib tarozida tortiladi. Namuna tarkibidagi o'lik paxtalar pinset yordamida ajratilib vazni aniqlanadi.

O'lchash natijalarini hisoblash:

Har bir usulda aniqlangan ikkala namunalarning ko'rsatkichlari qo'shiladi va o'rtachasi topiladi. Paxtadagi iflos aralashmalarning vazn ulushi (Z) foizlarda quyidagi formula orqali hisoblanadi:

$$Z = \frac{T_c * 100}{T_H}$$

bu yerda: T_c - ajratilgan yirik va mayda aralashmalar vazni, g;

T_H - o'rtacha namunaning tozalanmasdan oldingi vazni, g.

Paxtadagi o'lik paxtalarining vazn ulushi foizlarda quyidagi formula orqali hisoblanadi:

Hisoblash to ikkinchi o'nlik belgisigacha bo'lgan aniqlik bilan amalga oshiriladi va birinchi o'nlik belgisigacha yaxlitlanadi.

O'lchashlarning ruxsat etilgan xatoligi:

$$\text{улик} = \frac{\text{улик.вазн} * 100}{\text{намунa.вазни}}$$

Agarda ikkala o'rtacha namunaning ifloslik darajasi ko'rsatkichlari orasidagi farq iflosligi 10% gacha bo'lgan paxta uchun 0,6% ortiq va iflosligi 10% dan ortiq bo'lgan paxta uchun 1% dan ortiq bo'lmasa, paxtaning xakikiy iflosligini topish uchun shu ko'rsatkichlarning o'rtacha qiymati olinadi. Agarda bu farq ko'rsatilgan chegaradan yuqori bo'lsa ehtiyot uchun belgilangan uchunchi kichik namunani ham tekshirib, uchala ko'rsatkichning o'rtacha qiymati aniqlanadi.

Paxtani qabul qilishga tayyorgarlik ko'rish.

Tayyorlov punktlarining raxbariyati xo'jalik xodimlarini amaldagi qanunchilikka asoslangan respublika standartlari, standart na'munalari va paxtaga haq to'lash tartibi bilan tanishtirishi shart. Shu maqsadda terim boshlanishidan kamida 10 kun avval xo'jaliklarda fermerlar, mexanizatorlar va topshiruvchilar ishtirokida paxtani sifatli terish hamda uni tayyorlov punktiga topshirish bo'yicha kengash (seminar) o'tkazilishi kerak.

Namunaviy paxta tayyorlash punktining bosh plani ko'rsatilgan bo'lib, unda paxta tayyorlashni tashkil etish va paxtani saqlashga qo'yiladigan zamonaviy talablar ko'zda tutilgan. Mashinada terilgan paxtaning hammasi quritish-tozalash

sexida quritiladi va tozalanadi. Nam paxtani vaqtincha saqlash uchun yopiq paxta ombori va quritilgan paxtani saqlash uchun buntlash maydonchalari tashkil etiladi.

Paxta tayyorlash punktining idorasi, laboratoriya va boshqa yordamchi xonalar odatda bir binoda joylashgan, quritish-tozalash sexining o`txonasi, suyuq yoqilg`i ombori, transformator podstantsiyasi, 25 tonnali avtomobil tarozi joylashgan paxta qabul posti, hududga kirish darvozasi, chegara devorlari, mexanizmlar turadigan maydoncha, o`t o`cherish deposti, ko`mir saqlaydigan maydoncha, ichki darvoza, kanalizatsiya nasosi, 17,500 m³ suv sig`adigan xovuz, oshxona, o`t o`chirish nasosi, suv minorasi va proyektorlar tegishli tarzda teritoriyaga joylashtirilgan bo`lishi kerak.

Tayyorlash punktini elektr energiyasi bilan ta`minlash uchun maxsus 560 k. vattli transformator o`rnatilgan podstantsiya qurilgan, punkt laboratoriyasida vakuumli elektrik nam o`lchagichlar, chigitli paxtani islosligini aniqlaydigan priborlar, laboratoriya jinalari, polyazitorli mikroskoplar, I va II klass texnik tarozilar va boshqa asbob-uskunalar bo`lishi lozim. Bundan tashqari har bir paxta tayyorlash punkti har o`n ming tonna paxta uchun 12 dona qabul qilish mexanizmi, 12 dona 18 metrli transporterlar, 10 dona Narvon, bunt buzuvchi va paxta kovlovchi mashinalar bilan taminlangan bo`lishi kerak.

Xo`jaliklardan keltirilgan paxtani paxta tayyorlov maskanlarida qabul qilish uning pishganlik koeffitsiyenti, rangi va tashqi ko`rinishi bo`yicha O`zbekiston davlat standartiga asosan amalga oshiriladi. Qabul qilingan paxta 5 sanoat naviga bo`linadi, iflosliklarning massaviy ulushi va namlikni massaviy nisbati bo`yicha esa har qaysi sanoat navi 3 sinfga bo`linadi.

3-sinf I, II, III, IV navlari uchun belgilangan

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI:

1. Mirziyoyev Sh.M. – O`zbekiston Respublikasi prezidenti tomonidan "2017-2021 yillarga mo`ljallangan O`zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustivor yo`nalishlari bo`yicha harakatlar strategiyasi"-Toshkent.2017.
2. U.X. Azizxo`jayev, A.A. Axmedov "Paxtani dastlabki ishlash bo`yicha spravochnik", "Voriz –nashriyot" Toshkent -2008 yil.
3. «O`zpaxtasanoat» uyushmasi. «Paxtani dastlabki qayta ishlash», o`quv qo`llanma. T. «Toshkent islom universiteti», 2003.
4. M. Muxammadjonov, Z. Zoqirov, «G`o`za agrotexnikasi» O`quv qo`llanma. Toshkent 1995
5. Internet saytlari
6. www.Websentre.ru
7. www.Samjaskson.com
8. www.ziyonet.uz



"PROBLEMS AND PROSPECTS FOR THE IMPLEMENTATION OF INTERDISCIPLINARY RESEARCH"



9. www.agriculture.uz

